

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DAVLAT TILI HAQIDAGI
QONUNCHILIGINI MA’MURIY-HUQUQIY MUHOFAZA QILISH MASALALARI**

Xojiakbar Xusanovich Baxramov

O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti dotsenti

Annotatsiya: *Maqolada O‘zbekiston Respublikasining davlat tili haqidagi qonunchiligini ma’muriy-huquqiy muhofaza qilish hamda uni yanada takomillashtirish masalalari yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *davlat tili, ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi qonunchilik, ma’muriy huquqbuzarlik va ma’muriy javobgarlik.*

**ВОПРОСЫ АДМИНИСТРАТИВНО-ПРАВОВОЙ ЗАЩИТЫ
ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА О ГОСУДАРСТВЕННОМ ЯЗЫКЕ РЕСПУБЛИКИ
УЗБЕКИСТАН**

Аннотация: *В статье рассматриваются вопросы административно-правовой защиты и дальнейшего совершенствования законодательства Республики Узбекистан о государственном языке.*

Ключевые слова: *государственный язык, законодательство об административной ответственности, административное правонарушение и административная ответственность.*

**ISSUES OF ADMINISTRATIVE AND LEGAL PROTECTION OF
LEGISLATION ON THE STATE LANGUAGE OF THE REPUBLIC OF
UZBEKISTAN**

Abstract: *The article examines issues of administrative and legal protection and further improvement of the legislation of the Republic of Uzbekistan on the state language.*

Key words: *state language, legislation on administrative responsibility, administrative offense and administrative responsibility.*

Ma’lumki, mamlakatimiz mustaqilligini qo‘lga kiritishdan avval ya’ni 1989-yil 21-oktabrda «O‘zbekiston Respublikasining davlat tili haqida»gi Qonunini qabul qilgan edi[1].

Bu borada Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev o‘rinli ta’kidlaganlaridek, “1989-yil 21-oktabr sanasini – “Davlat tili haqida”gi qonun qabul qilingan kunni eslashimiz o‘rinlidir. Yurtimizda mustabid tuzum hali o‘z hukmini o‘tkazib turgan g‘oyat og‘ir sharoitda xalqimizning taqdiri va kelajagini hal qiladigan bu qonunni qabul qilish biz uchun oson kechmagan edi.

Bu muhim hujjatning qabul qilinishida fidoyi va vatanparvar ziyolilarimiz, keng jamoatchilikning qat’iy shijoati hamda Birinchi Prezidentimiz muhtaram Islom Abdug‘anievich Karimovning siyosiy irodasi katta o‘rin tutdi.

O'zbek tili davlat tili sifatida xalqimizni birlashtiradigan, jamiyatimizni ulug' maqsadlar sari safarbar etadigan qudratli kuch bo'lib maydonga chiqdi. Ayni vaqtda u O'zbekistonning davlat mustaqilligi sari qo'yilgan birinchi dadil qadam edi. Bu qonun xalqimizning o'z taqdirini o'zi belgilash yo'lidagi azmu qarorining yorqin namoyoni bo'ldi. Oradan ikki yil o'tib, O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi aynan ona tilimizda jahonga e'lon qilindi.

Mamlakatimizning Asosiy qonuni - Konstitutsiyamizning o'zbek tilida yaratilishi uning nufuzini yanada yuksaltirdi." [2].

Mustaqillikka ega bo'lgan davlatimiz, milliy qonunchiligini bosqichma-bosqich shakllantirib, davlat tilini izchil joriy etish jarayonini takomillashtirish va lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosiga mukammal o'tishini ta'minlash maqsadida mazkur qonunga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi 1995-yil 21-dekabrda 167-I-son Qonuni bilan yangi tahriri tasdiqlandi[3].

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 4-moddasida quyidagi konstitutsiyaviy-huquqiy normalar mustahkamlangan "O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir. O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi millat va elatlarning tillari, urf-odatlar va an'analari hurmat qilinishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi." [4].

O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi (Yangi tahrirdagi) Qonunining birinchi va ikkinchi moddalarida ham quyidagi normalar qayd etilganligini ko'rishimiz mumkin 1-moddasida "O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir." 2-moddasida "O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi respublika hududida yashovchi millat va elatlarning o'z ona tilini qo'llashdan iborat konstitutsiyaviy huquqlariga monelik qilmaydi."

Mamlakatimizda so'nggi yillarda davlat tilini rivojlantirish, davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan ta'sirchan nazoratni amalga oshirish, davlat organlari va tashkilotlari, shu jumladan, mahalliy ijroiya hokimiyati organlarining davlat tilini rivojlantirish, davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini tashkil qilish, shuningdek, davlat tilining amal qilishi bilan bog'liq muammolarni aniqlash va bartaraf etish, shuningdek, uni rivojlantirish sohasida muayyan ishlar amalga oshirildi.

Shu bilan birga, prokuratura idoralari tomonidan davlat boshqaruvi, mahalliy hokimiyat organlari va boshqa idoralar faoliyatida davlat tili haqidagi qonun talablarini buzish bilan bog'liq 8 mingdan ortiq holat aniqlangan. Qonun buzilishlar, asosan, imlo qoidalarini buzish bilan bog'liq 3552 ta, ish hujjatlarini yuritish va ichki hujjatlarni qabul qilishda belgilangan talablarga rioya etmaslik 1750 ta, tashqi axborot matnlarida davlat tili normalarini buzilishi 1502 ta, geografik ob'ektlarni nomlanishda qonun talablarini bajarmaslik kabi 260 ta holatlar aniqlangan.

Bu esa, o'z navbatida davlat tili haqidagi qonun talablari hamda o'zbek tilining imlo qoidalari buzilishiga yo'l qo'ygan mas'ul shaxslarga nisbatan tegishli ma'muriy ta'sir choralarini kuchaytirish mexanizmlarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi amaldagi kodeksining 42-moddasida "Davlat tili to'g'risidagi qonunchilikni buzish" deb nomlangan quyidagi ma'muriy-huquqiy norma mavjud. "Fuqarolarning tarbiya va ta'lim berishda tilni erkin tanlashdan iborat huquqlarini buzish, tildan foydalanishda to'sqinlik qilish va cheklash, davlat tilini, shuningdek O'zbekiston Respublikasida yashovchi boshqa millatlar va elatlarning

tillarini mensimaslik – bazaviy hisoblash miqdorining bir baravaridan ikki baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi." [5].

Biroq, mazkur ma'muriy-huquqiy normada yuqorida bayon etilgan davlat tili haqidagi qonun talablarini buzish bilan bog'liq holatlar uchun javobgarlik nazarda tutilmaganligini ko'rishimiz mumkin.

Bu borada MDHga a'zo mamlakatlar ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonunchiligini o'rganish shuni ko'rsatadiki, aksariyat davlatlarda ma'muriy huquqbuzarliklar haqidagi qonunchiligida davlat tiliga oid qonun normalarini buzganlik uchun javobgarlik choralari kuchaytirilgan. Jumladan:

Armaniston ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi kodeksining

1893-moddasida "davlat organlari, muassasalari, tashkilotlari (mulkchilik shaklidan qat'iy nazar) ish yuritishni arman tilidan boshqa tilda olib borish, belgilar, shtamplar, blankalar muhrlarni arman tilidan boshqa tilda bo'lishi, – fuqarolarga hamda mansabdor shaxslarga eng kam oylik ish haqining 200 baravaridan 500 baravarigacha jarima nazarda tutilgan.

Shuningdek, Ma'muriy xatti-harakatlar to'g'risidagi Ozarbayjon Respublikasi kodeksining 533-moddasida ham "Ozarbayjon tilidagi lotin alifbosida ish yuritish qoidalariga rioya qilmaganlik uchun ma'muriy javobgarlik belgilangan.

Bizningcha, yuqoridagi holatlardan kelib chiqib, amaldagi

O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining

42-moddasiga quyidagi tahrirdagi ikkinchi qism bilan to'ldirish maqsadga muvofiq bo'ladi:

"Tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'i nazar, barcha ish yuritish hujjatlari va boshqa hujjatlarni lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosida yuritmaslik yoki o'zbek adabiy tilining amaldagi ilmiy qoidalar va normalariga rioya etmaslik, shuningdek, lavhalar, e'lonlar, narx-nomalar va boshqa ko'rgazmali hamda og'zaki axborot matnlarini davlat tilida rasmiylashtirmaslik yoki e'lon qilmaslik –

fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining ikki baravaridan to'rt baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa – besh baravaridan 10 baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi".

Fikrimizcha, ushbu qonun loyihasini qabul qilinishi davlat tilini rivojlantirish sohasida yagona davlat siyosatini samaradorligini oshirishga, davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini samarali ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

[1] O'zbekiston Respublikasining davlat tili haqida»gi Qonuni. O'zbekiston Respublikasi Oliy Sovetining Vedomostlari, 1989 yil, № 26-28, 453-modda.

[2] O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoevning O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o'ttiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 21.10.2019. <https://president.uz/uz/lists/view/2954>

[3] O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi qonunga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida Qonuni. O'zR Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1995 y., 12-son, 257-modda; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son.

[4] O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023 y., 03/23/837/0241-son.

[5] O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1995 y., 3-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 22.08.2025 y., 03/25/1083/0769-son.